(10). Deterding S., Dixon D., Khaled R., Nacke L. From Game Design Elements to Gamefulness: Defining Gamification. Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference. 2011, p. 9–15.

(11). Werbach K., Hunter D. For the Win: How Game Thinking Can Revolutionize Your Business. Philadelphia: Wharton Digital Press, 2012.

(12). Kapp K.M. The Gamification of Learning and Instruction: Game-Based Methods and Strategies for Training and Education. San Francisco, Pfeiffer, 2012.

(13). Hamari J., Koivisto J., Sarsa H. Does Gamification Work? A Literature Review of Empirical Studies on Gamification. Proceedings of the 47th Hawaii International Conference on System Sciences. 2014, p. 3025–3034.

(14). Kocadere S.A., Samur Y. Gamification and Education: Achievements, Cognitive Loads and Views of Students. Educational Sciences: Theory and Practice. 2016, vol. 16(1), p. 45–71.

(15). Prensky M. Digital Game-Based Learning. New York, McGraw-Hill, 2001.

(16). Zichermann G., Cunningham C. Gamification by Design: Implementing Game Mechanics in Web and Mobile Apps. Sebastopol: O'Reilly Media, 2011.

(17). Hiebert J., Carpenter T.P. Learning and Teaching with Understanding. Handbook of Research on Mathematics Teaching and Learning. New York, Macmillan, 2014, p. 65–97.

(18). Bishop A.J. Mathematical Enculturation: A Cultural Perspective on Mathematics Education. Dordrecht, Springer, 2012.

Azamatova Dilafruz Saydig'aniyevna (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Respblika ta'lim markazi "Kimyo" fani bo'limi boshlig'i; dilafruzazamatova431@gmail.com)

KIMYO O'QITUVCHISINING KASBIY FAOLIYATIDA KONSTRUKTIV TAFAKKURNING MOHIYATI VA AHAMIYATI

Annotatsiya*. Mazkur maqolada kimyo o'qituvchisining kasbiy faoliyatida konstruktiv tafakkurning mohiyati, uning asosiy belgilari hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Konstruktiv tafakkurning pedagogik muammolarni hal etish, hissiy barqarorlikni ta'minlash, kasbiy qarorlar qabul qilish va ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqot natijalari konstruktiv tafakkur kimyo o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar*: konstruktiv tafakkur, kimyo o'qituvchisi, kasbiy kompetentlik, pedagogik faoliyat, refleksiya, pedagogik muammolar, hissiy barqarorlik, ta'lim sifati.*

Д.С.Азаматова (Заведующая отделом химии Республиканского центра образования Министерства дошкольного и школьного образования; dilafruzazamatova431@gmail.com)

СУЩНОСТЬ И ЗНАЧЕНИЕ КОНСТРУКТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ ХИМИИ

Аннотация. *В данной статье проанализированы сущность конструктивного мышления в профессиональной деятельности учителя химии, его основные признаки, а также значение в повышении эффективности педагогической деятельности. Раскрыта роль конструктивного мышления в решении педагогических проблем, обеспечении эмоциональной устойчивости, принятии профессиональных решений и повышении качества образования. Результаты исследования показывают, что конструктивное мышление является одним из важных факторов развития профессиональной компетентности учителя химии.*

Ключевые слова: *конструктивное мышление, учитель химии, профессиональная компетентность, педагогическая деятельность, рефлексия, педагогические проблемы, эмоциональная устойчивость, качество образования.*

D.S.Azamatova (Head of the Chemistry Department, Republican Education Center under the Ministry of Preschool and School Education; dilafruzazamatova431@gmail.com)

THE ESSENCE AND SIGNIFICANCE OF CONSTRUCTIVE THINKING IN THE PROFESSIONAL ACTIVITY OF A CHEMISTRY TEACHER

Annotation. *This article analyzes the essence of constructive thinking in the professional activity of a chemistry teacher, its main characteristics, and its significance in improving the effectiveness of pedagogical practice. The role of constructive thinking in solving pedagogical problems, ensuring emotional stability, making professional decisions, and improving the quality of education is highlighted. The research findings indicate that constructive thinking is one of the key factors in the development of a chemistry teacher's professional competence.*

Keywords: *constructive thinking, chemistry teacher, professional competence, pedagogical activity, reflection, pedagogical problems, emotional stability, quality of education.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish sharoitida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirish, ularning innovatsion faoliyatga tayyorligini oshirish hamda ta'lim sifatini ta'minlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Globallashuv, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ta'lim mazmunining yangilanib borishi o'qituvchilardan nafaqat chuqur fan bilimlari, balki murakkab pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, samarali qarorlar qabul qilish va o'z kasbiy faoliyatini muntazam takomillashtirib borish kabi kompetensiyalarni ham talab etmoqda.

Ayniqsa, kimyo fanini o'qitish jarayonida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan integratsiyalash, eksperimental ishlarni tashkil etish, o'quvchilarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish va ta'lim natijalarini yaxshilash masalalari o'qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy kompetentlikni talab qiladi. Bunday sharoitda konstruktiv tafakkur pedagogning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, pedagogik muammolarni hal etish va ta'lim jarayonini takomillashtirishning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi "Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–231-qarorida pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, refleksiv faoliyatini qo'llab-quvvatlash, innovatsion metodlarni amaliyotga joriy etish hamda malaka oshirish mazmunini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Bu esa o'qituvchilarda zamonaviy kompetensiyalar bilan bir qatorda konstruktiv tafakkurni ham rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro tadqiqotlar ham pedagoglarning kasbiy rivojlanishida refleksiya va konstruktiv fikrlash muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. OECD tomonidan nashr etilgan "Teachers' Professional Learning and Development" (2019) hisobotida o'qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishi refleksiv faoliyat, hamkorlikda o'rganish va amaliy tajribani tahlil qilish bilan chambarchas bog'liqligi ta'kidlangan. Tadqiqotchilar pedagogik muammolarni tahlil qilish va ularning amaliy yechimlarini ishlab chiqishga qaratilgan yondashuv o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qilishini qayd etadilar.

Kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan, kimyo o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari ham qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, G.M. Chernobelskaya, G.Y. Gulbis, B.P.Bolotinskaya, Y.Y.Gavronskaya, O.V.Romanova, I.A.Adayev, G.M.Kortunov, Y.V. Nechitaylova va boshqa tadqiqotchilar tomonidan oliy ta'lim muassasalarida kimyo o'qitish muammolari, axborot-metodik kompetensiyalarni shakllantirish, bo'lajak kimyo o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, maxsus kimyoviy fanlarni interfaol o'qitish, kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda individual yondashuv masalalari o'rganilgan. Darling-Hammond tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'qituvchi sifati va o'quvchilar ta'lim natijalari o'rtasidagi bog'liqlik ilmiy asoslangan. Muallifning fikricha, yuqori natijalarga erishayotgan pedagoglar o'z faoliyatini muntazam tahlil qiladigan, o'quvchilarning ehtiyojlariga moslashadigan va muammolarni hal etishda moslashuvchan yondashuvlarni qo'llaydigan o'qituvchilardir. Mazkur sifatlar konstruktiv tafakkurning muhim komponentlari hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotlarda asosan metodik, axborot-kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari yoritilgan bo'lib, konstruktiv tafakkurning kimyo o'qituvchisi kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi o'rni, uning pedagogik faoliyat samaradorligiga ta'siri va rivojlantirish mexanizmlari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri o'zgaruvchan sharoitlarda mustaqil faoliyat yurita oladigan, o'z bilimlarini amaliyotda samarali qo'llay oladigan va uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyor bo'lgan kompetent mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Bu esa kimyo o'qituvchisidan nafaqat chuqur fan bilimlari va metodik tayyorgarlikni, balki pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, asosli qarorlar qabul qilish, innovatsion yechimlar ishlab chiqish hamda kasbiy faoliyatini takomillashtirib borishga xizmat qiluvchi konstruktiv tafakkurga ega bo'lishni ham talab etadi.

Shu munosabat bilan, konstruktiv tafakkurning kimyo o'qituvchisi kasbiy kompetentligini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyatini aniqlash dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Tadqiqotning maqsadi kimyo o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda konstruktiv tafakkurning o'rni va ahamiyatini aniqlash, uning asosiy tarkibiy xususiyatlarini tavsiflash hamda pedagogik faoliyat samaradorligiga ta'sirini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot jarayonida pedagogika, psixologiya va metodika sohalariga oid ilmiy manbalarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, konstruktiv tafakkurning kimyo o'qituvchisi kasbiy faoliyatidagi namoyon bo'lish shakllari pedagogik vaziyatlar misolida tahlil qilindi.

Natijalar. Tahlillar natijasida konstruktiv tafakkurning kimyo o‘qituvchisi kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishi hamda uning pedagogik muammolarni hal etish samaradorligini oshirishi aniqlandi. Konstruktiv tafakkur muammolarning o‘ziga emas, balki ularning yechimiga e’tibor qaratadigan fikrlash usuli hisoblanadi. Bunday tafakkurga ega bo‘lgan shaxs muvaffaqiyatsizlik sabablarini cheksiz tahlil qilish bilan cheklanib qolmay, mavjud vaziyatni qanday yaxshilash mumkinligi haqida o‘ylaydi va amaliy yechimlarni izlashga kirishadi. Muhim jihati shundaki, konstruktiv tafakkur tug‘ma sifat emas, balki maqsadli ravishda rivojlantiriladigan ko‘nikma hisoblanadi. U insonning o‘z ustida muntazam ishlashi, tafakkurini mashq qildirish hamda bunyodkorlikka yo‘naltirilgan dunyoqarashni shakllantirishi natijasida rivojlanadi.

Tadqiqotlar konstruktiv tafakkurning, avvalo, stressli vaziyatlarda his-tuyg‘ularni boshqarishga yordam berishini ko‘rsatdi. Bu esa muammoning o‘ziga emas, balki uni hal qilish yo‘llarini izlashga e’tibor qaratish imkonini beradi. Mazkur holatni kimyo o‘qituvchisining kasbiy faoliyati misolida kuzatish mumkin. Masalan, yangi mavzu bo‘yicha o‘tkazilgan nazorat ishlarining natijalari kutilganidan past bo‘lgan vaziyatda konstruktiv tafakkurga ega bo‘lmagan o‘qituvchi hafsalasi pir bo‘lishi, o‘quvchilarni ayblashi yoki muvaffaqiyatsizlik sabablarini uzoq vaqt o‘ylab yurishi mumkin. Bunday vaziyatda hissiyotlar ustun kelib, muammoni obyektiv baholash qiyinlashadi.

Konstruktiv tafakkurga ega o‘qituvchi esa natijalarni chuqur tahlil qiladi va o‘ziga quyidagi savollarni beradi: “Qaysi mavzular o‘quvchilar uchun murakkab bo‘ldi?”, “Tushuntirish usulimni qanday takomillashtirish mumkin?”, “Qaysi topshiriqlarni qo‘shimcha mashq sifatida berish kerak?” Natijada u keyingi darslar uchun yangi metodlarni rejalashtiradi, qo‘shimcha ko‘rgazmali materiallardan foydalanadi yoki differensial yondashuvni qo‘llaydi. Bunday yondashuvning asosi his-tuyg‘ularni boshqara olishga tayanadi. Agar salbiy hissiyotlar ustunlik qilsa, vaziyatni obyektiv baholash va samarali qaror qabul qilish qobiliyati pasayadi. Aksincha, hissiy barqarorlik va o‘zini nazorat qilish konstruktiv tafakkurning muhim sharti hisoblanadi.

Tahlillar konstruktiv tafakkurning kimyo o‘qituvchisi faoliyatida bir qator muhim belgilar orqali namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

Birinchidan, konstruktiv tafakkur aniqlik bilan tavsiflanadi. U umumiy va mavhum mulohazalarga emas, balki aniq maqsad va vazifalarga tayanadi. Masalan, «o‘quvchilar mavzuni yaxshi o‘zlashtirmadi» degan umumiy xulosa bilan cheklanib qolmasdan, o‘qituvchi qaysi tushuncha, qonun yoki masala turi o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirganini aniqlaydi. Maqsad qanchalik aniq belgilansa, unga erishish yo‘llarini topish shunchalik osonlashadi.

Ikkinchidan, konstruktiv tafakkur maqsadga yo‘naltirilganligi bilan tavsiflanadi. O‘qituvchi o‘z e’tiborini muayyan pedagogik vazifani hal etishga qaratadi. Masalan, o‘quvchilarda kimyoviy formulalarni tuzish ko‘nikmasini rivojlantirish vazifasi qo‘yilgan bo‘lsa, asosiy e’tibor aynan shu muammoni bartaraf etish usullariga qaratiladi. Chalg‘ituvchi omillar va ikkinchi darajali masalalar keyingi bosqichlarda ko‘rib chiqiladi.

Uchinchidan, konstruktiv tafakkur emotsiyalarni boshqarish bilan bog‘liq. U his-tuyg‘ularni inkor etishni emas, balki ularni nazorat qila olishni nazarda tutadi. Masalan, dars natijalari kutilganidek bo‘lmaganda yoki o‘quvchilar past natija ko‘rsatganda, o‘qituvchi hissiyotlarga berilib ketmasdan vaziyatni xolis tahlil qiladi. U qaysi omillar muammoni keltirib chiqarganini aniqlaydi va ularni bartaraf etish choralarini rejalashtiradi. Xotirjamlik va vazminlik samarali qaror qabul qilishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.


To‘rtinchidan, konstruktiv tafakkur ijobiy yo‘nalganlikka ega. Bunda muammolar emas, balki ularning yechimlari markaziy o‘rinni egallaydi. Masalan, laboratoriya mashg‘ulotlari uchun zarur jihozlar yetarli bo‘lmagan sharoitda o‘qituvchi faqat mavjud cheklovlarni sanab o‘tish bilan cheklanmaydi. U virtual laboratoriyalar, modellar, videodemonstratsiyalar yoki muqobil tajribalar orqali maqsadga erishish imkoniyatlarini izlaydi.

Beshinchidan, konstruktiv tafakkur bosqichma-bosqich faoliyat yuritishni nazarda tutadi. Murakkab pedagogik maqsadlar ketma-ket bosqichlarga ajratiladi. Masalan, o‘quvchilarda kimyoviy masalalarni yechish kompetensiyasini shakllantirish vazifasi nazariy bilimlarni mustahkamlash, namunaviy masalalarni tahlil qilish, mustaqil mashqlar bajarish va natijalarni baholash kabi bosqichlar orqali amalga oshiriladi. Har bir bosqich izchil bajarilganda yakuniy natijaga erishish osonlashadi.

Tadqiqot natijalari respondentlarning 26,4 foizida konstruktiv tafakkur yuqori darajada shakllanganligini ko‘rsatdi. Ishtirokchilarning asosiy qismi (52,8%) o‘rta darajani namoyish etdi. 20,8 foiz respondentlarda esa konstruktiv tafakkurning ayrim komponentlari yetarli darajada rivojlanmaganligi aniqlandi.

Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish natijalari yuqori darajadagi konstruktiv tafakkurga ega o‘qituvchilar muammolarni hal etishda ko‘proq refleksiv va yechimga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llashlarini ko‘rsatdi. Ular muvaffaqiyatsizlik sabablarini tashqi omillar bilan izohlashdan ko‘ra, o‘z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirishga moyillik bildirdilar. O‘rta va past darajadagi respondentlarda esa muammoli vaziyatlarga nisbatan emotsional reaksiya va tashqi omillarni ayblash holatlari ko‘proq kuzatildi.

Shunday qilib, konstruktiv tafakkur kimyo o‘qituvchisiga pedagogik vaziyatlarni xolis baholash, muammolarning amaliy yechimlarini topish hamda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, konstruktiv tafakkurga ega bo‘lgan kimyo o‘qituvchilari pedagogik muammolarni samaraliroq hal qiladi, kasbiy stressga bardoshlilik darajasi yuqori bo‘ladi va ta’lim sifatini oshirishga ko‘proq erishadilar.



1-rasm. Respondentlarda konstruktiv tafakkur darajasi.

Muhokama. Olingan natijalar konstruktiv tafakkurning kimyo o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida muhim o‘rin tutishini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida aniqlangan aniqlik, maqsadga yo‘naltirilganlik, emotsiyalarni boshqarish, ijobiy yo‘nalganlik va bosqichma-bosqich faoliyat yuritish kabi xususiyatlar pedagogik muammolarni samarali hal etishning muhim omillari sifatida namoyon bo‘ldi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, konstruktiv tafakkur pedagogik refleksiya bilan chambarchas bog‘liq. Refleksiya jarayonida o‘qituvchi o‘z faoliyatini tahlil qiladi, mavjud kamchiliklarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilaydi. Konstruktiv tafakkur esa ushbu jarayonning samaradorligini oshirib, pedagogik muammolarga amaliy yechim topishga yordam beradi. Shu jihatdan, konstruktiv tafakkur o‘qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida qaralishi mumkin.

Tadqiqot natijalari konstruktiv tafakkurning hissiy barqarorlik bilan ham uzviy bog‘liqligini ko‘rsatdi. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘qituvchilar turli xil stress omillari, jumladan, o‘quvchilar bilim darajasidagi farqlar, katta pedagogik yuklama, ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan yuqori talablar va baholash jarayonlari bilan muntazam ravishda duch keladilar. Konstruktiv tafakkur bunday vaziyatlarda muammoni hissiyotlar asosida emas, balki dalillar asosida tahlil qilish imkonini beradi. Natijada pedagogik qarorlarning sifati oshadi va kasbiy zo‘riqishning salbiy ta’siri kamayadi.



2-rasm. Kimyo o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida konstruktiv tafakkur va pedagogik refleksiyaning o‘zaro bog‘liqligi modeli.

Kimyo ta’limi nuqtayi nazaridan, konstruktiv tafakkur alohida ahamiyat kasb etadi. Kimyo fanini o‘qitish murakkab nazariy tushunchalar, eksperimental faoliyat, laboratoriya mashg‘ulotlari va muammoli vaziyatlarni yechish bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli, o‘qituvchidan yuqori darajadagi tahliliy va amaliy fikrlashni talab etadi. Konstruktiv tafakkur o‘qituvchiga o‘quvchilarning o‘zlashtirishidagi qiyinchiliklarni aniqlash, o‘qitish metodlarini moslashtirish hamda mavjud resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi.

Shuningdek, konstruktiv tafakkur pedagogning innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Bunday tafakkurga ega o‘qituvchi ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni yangi pedagogik texnologiyalar, raqamli vositalar va zamonaviy metodik yondashuvlar yordamida hal etishga intiladi. Bu esa ta’lim sifati va samaradorligining oshishiga xizmat qiladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, konstruktiv tafakkurni rivojlantirish kimyo o‘qituvchilarini tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim. Malaka oshirish kurslari mazmuniga konstruktiv tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan treninglar, muammoli pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, refleksiv mashg‘ulotlar va amaliy кейслар bilan ishlash elementlarini kiritish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Kimyo o‘qituvchisining kasbiy faoliyatida konstruktiv tafakkur pedagogik muammolarni samarali hal etish, hissiy barqarorlikni ta’minlash va ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Konstruktiv tafakkur o‘qituvchiga vaziyatlarni obyektiv tahlil qilish, oqilona qarorlar qabul qilish va kasbiy faoliyatini muntazam takomillashtirib borish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari konstruktiv tafakkurni rivojlantirish kimyo o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini oshirish, pedagogik mahoratini takomillashtirish hamda zamonaviy ta’lim talablariga moslashishning muhim sharti ekanligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 21-iyundagi PQ–231-qarori.

(2). OECD. Teachers’ Professional Learning and Development. OECD Publishing, 2019.

(3). Darling-Hammond, L.Teacher Quality and Student Achievement. Educational Policy, 2017.

(4). Iskandarov A.Y., Azamatova D.S., Ismatov I.Sh. Kimyo o‘qitish metodikasi. Darslik, Toshkent, “Zebo Prints“, 2024, 367-bet.

(5). D.S.Azamatova. Kimyo fanini o‘qitishda zamonaviy yondashuvlar. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, “Zebo print”, 2025, 382-bet.

(6). M.A.Yuldashev. Xalq ta'limi xodimlarining malakasini oshirishda ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish. Ped.fan.dok.diss., Toshkent, 2016, 310-bet.

(7). G.T.Boymurodova. Malaka oshirish tizimini modernizatsiyalash jarayonida o'qituvchilarning kasbiy kompetentliligini uzluksiz rivojlantirish mexanizmi. 2020, 286-bet.

(8). Sh.A.Mamajonov, N.B.Odilxo'jazoda. Kimyo o'qituvchisi kasbiy kompetentligini aniqlashning pedagogik mazmuni. "FarDU Ilmiy xabarlari", 2024, 3, 205–209-betlar.

Isakov Zakirjon Soliyevich (Qo'qon davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi)

BOSHLANG'ICH SINF DARSLIKLARI – HUSNI XULQIMIZNI SHAKLLANTIRUVCHI MANBA SIFATIDA

Annotatsiya. *Maqolada boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarining o'quvchi shaxsini ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashdagi o'rni tahlil qilinadi. Darsliklardagi matnlarning mavzuiy mazmuni, hajmi, bezatilishi va didaktik imkoniyatlari ilmiy-amaliy asosda yoritilgan. Tadqiqot xarakter tarbiyasi va ijtimoiy o'rganish nazariyalari asosida boyitilgan bo'lib, darslik orqali o'quvchilarda husni xulqni shakllantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan hamda amaliy tavsiyalar asosli keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *darslik, matn, ma'naviyat, husni xulq, boshlang'ich ta'lim, didaktika, ta'lim, tarbiya, bezak, illyustratsiya, o'quvchi, metodika, xarakter tarbiyasi, ijtimoiy o'rganish nazariyasi.*

Исаков Закиржон Солиевич (доцент Кокандского государственного университета, кандидат филологических наук)

УЧЕБНИКИ ДЛЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ – КАК ИСТОЧНИК ФОРМИРОВАНИЯ ДОБРОГО ХАРАКТЕРА

Аннотация. *В статье анализируется роль учебников по родному языку и чтению для начальной школы в духовно-нравственном воспитании ученика. На научно-практической основе рассмотрены тематическое содержание, объем, оформление и дидактические возможности текстов в учебниках. Также особое внимание уделено вопросу формирования доброго характера у учащихся посредством учебника и даны практические рекомендации.*

Ключевые слова: *учебник, текст, духовность, добрый характер, начальное образование, дидактика, образование, воспитание, оформление, иллюстрация, ученик, методология.*

Isakov Zakirjon Soliyevich (Associate Professor at Kokand State University, Candidate of Philological Sciences)

PRIMARY SCHOOL TEXTBOOKS AS A SOURCE FOR DEVELOPING GOOD CHARACTER

Annotation. *This article analyzes the role of primary school textbooks on native language and reading in the spiritual and moral development of students. Using a scientific and practical framework, the thematic content, length, format, and didactic potential of texts in textbooks are examined. The study is further grounded in character-education and social-learning theory. Particular attention is also paid to the development of good character in students through textbooks, and practical recommendations are provided.*

Keywords: *textbook, text, spirituality, good character, primary education, didactics, education, upbringing, formatting, illustration, student, methodology, character education, social learning theory.*

Kirish. Boshlang'ich ta'lim tizimi o'quvchi shaxsining shakllanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili darsliklari bolalarda nafaqat nutq ko'nikmalarini, balki ma'naviy-axloqiy sifatlarni ham shakllantiradi, shu ma'noda darsliklar "ma'naviy tarbiya vositasi" sifatida qaralishi lozim. Darsliklardagi matnlar orqali o'quvchilarda yaxshilik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, halollik kabi fazilatlar shakllantiriladi, bu esa ta'lim mazmunini nafaqat axborot beruvchi, balki tarbiyalovchi tizim sifatida ko'rishni taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbligi milliy darajada ham tasdiqlangan: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-qarori bilan tasdiqlangan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiyasi yosh avlodda vatanga sadoqat, mehr-oqibat, mas'uliyat kabi tayanch fazilatlarni bosqichma-bosqich, jumladan, boshlang'ich sinf davridan boshlab shakllantirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan [6], shu bois boshlang'ich sinf darsliklarining mazkur vazifani qay darajada bajarayotganini ilmiy tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Boshlang'ich ta'lim va darslikshunoslik sohasida bir qator olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, darslik mazmuni va uning tarbiyaviy ahamiyati masalalari[1;7;8] tadqiq etilgan. Pedagogik tadqiqotlarda darslik faqat bilim manbayi emas, balki shaxsni tarbiyalovchi vosita sifatida qaraladi [3;78-b.]. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda darslik dizay-